

**ZAIF ESHITUVCHI BOLALARNING MAYDA QO'L MOTORIKASINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Djurayeva Sohiba Barat qizi**

JDPU Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi

**Solijonova Gullola Saidjon qizi**

**Boymurodova Sevinch Sirojiddin qizi**

JDPU Surdopedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Email: gullolasolijonova31@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zaif eshituvchi bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda mayda qo'l motorikasi bilan ishlash bo'yicha rivojlantiruvchi mashqlar tizimi, o'yin texnikalari va amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Zaif eshituvchi bola, nutq, artikulyatsiya motorika, mayda qo'l motorikasi, fiziologik, psixologik rivojlanish, metodika.

**Annotation:** This article presents a system of developmental exercises, game techniques, and practical recommendations for working with small hand motor skills in the formation of spoken speech in hearing-impaired children.

**Key words:** hearing-impaired child, speech, articulation motor skills, fine hand motor skills, physiological, psychological development, methodology.

**Аннотация:** В данной статье приведены система развивающих упражнений, игровые приемы и практические рекомендации по работе с мелкой ручной моторикой при формировании устной речи слабослышащих детей.

**Ключевые слова:** Слабослышащий ребенок, речь, артикуляционная моторика, моторика рук, физиологическое, психологическое развитие, методика.

Bugungi kunda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya jarayonini ularga mos ravishda tashkil etish, sog'lom jamiyatga tenglashtirishdek o'ta mas'uliyatli vazifalar bir qator me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, asosiy maqsad o'quvchilarni mustaqil hayotga va kasb-hunarga tayyorlash, jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga yordam berishdan iboratdir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish, eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, og'zaki nutqini shakllantirish, umumiy va mayda motorikani rivojlantirish ishlari surdopedagoglar tomonidan to'g'ri amalga oshirilishi kerak. Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni sifatli o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va rehabilitatsiya qilishning shartlaridan biri bu surdopedagoglar tomonidan tashkil qilingan korreksion mashg'ulotlarning to'g'ri va samaradorligida. Eshitish holatiga ko'ra, zaif eshituvchi, kar bolalar va kech kar bo'lgan bolalar bir biridan farqlanadi. Kar bolalarni o'qitish va tarbiyalashning tayyorlov bosqichida daktil va imo-ishora nutqi yetakchilik qilsa, zaif eshituvchi bolalarda o'g'zaki nutq asosiy o'rinni egallaydi. Eshitish qobiliyatining buzulishi, nutqning normal rivojlanishdan chetga chiqishga hamda, bolaning mustaqil bo'lish imkoniyatiga to'sqinlik qiladi. Bola nutqining to'laqonli rivojlanishi normal eshitish faoliyatiga

uzviy bog'liqdir. Mayda qo'l motorikasining harakatchanligi o'g'zaki nutqning shakllanishiga turtki bo'ladi. Ilmiy izlanishlarga ko'ra M.M.Kolsova "Bola nutqining rivojlanish darajasi to'g'ridan to'g'ri qo'lning mayda motorikasiga bog'liq" ekanligini ta'kidlab o'tgan. L.F.Fomina fikricha "Agar barmoqlar harakatining rivojlanishi yoshga mos kelsa, unda nutqning rivojlanishi me'yoriy darajada bo'ladi. Agar barmoqlar harakati oqsasa, unda nutq ham sust rivojlanadi".

Mayda motorika - bu zaif eshituvchi bolalarni qo'l-oyoqlarining kaftlari va barmoqlari bilan mayda, nozik va aniq harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Mayda motorika sohasi o'ziga xos hamiyatga ega bo'lib u ko'p sonli va turli xil harakatlarni o'z ichiga oladi. Masalan: oddiy harakatlardan tortib (masalan, o'yinchoqni ushlab) murakkab harakatlarga (yozish va rasm chizish). Mayda motorikalar bola tug'ilgan paytidan boshlab rivojlana boshlaydi. Dastlab, go'dak o'z qo'llarini o'rganadi va asta sekin ularni boshqarishga o'tadi. U buyumlarni butun kafti bilan ushlaydi, keyin esa faqat ikkita (katti va ko'rsatkich) barmog'i bilan ularni manipulyatsiya qiladi. Shu orqali bolalar dastlab o'yinchoqlar, keyin qoshiq, qalam, mo'yqalam kabi buyumlarni tog'ri ushlab o'rgatiladi. Mayda motorikaning zaif eshituvchi bola organizmidagi o'rni ahamiyatli bo'lib, ularni asab tizimi, ko'rish qobiliyati, diqqat e'tibor, xotira va idrok qilish kabi organizm xususiyatlarini shakllanishi va rivojlanishiga hamda yozuv va chizuv qobiliyatlari, fikrlash jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari bolaning nutqini rivojlanishida ham mayda motorikaning ta'siri yuqori bo'lib, dastlab bolaning tovushlarini shakllanishiga va nutqini o'sishiga motivatsiya beradi. Bolalarning mayda motorikasini rivojlantirish uchun ko'plab mashg'ulotlar, o'yinlar va mashqlar mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin: barmoq o'yinlari, mayda buyumlar bilan bog'liq o'yinlar, shakl yasash va rasm chizish, barmoqlarni massaj qilish.

Mayda motorikani rivojlantirishning eng oddiy va samarali usuli bu kaftlarni massaj qilishdir. Bu usul har qanday yosh uchun eng oddiy va universal usul hisoblanadi. Bunda zaif eshituvchi bolaning kaftlarini silanadi va umassaj qilinadi. "Qog'oz yirtish" usuli - Bolaga bir necha varoq yumshoq rangli qog'oz beriladi, bola uni bajarib ushlab ko'radi, qo'llarida aylantiradi va yirtadi. Bu mashg'ulot bolaga juda katta zavq bag'ishlaydi. "Sahifalarni varaqlash" - bu usul 1 yoshdan so'ng qog'oz yirtishni rasmlari ko'p bo'lgan kitobcha yoki jurnal sahifalarini varaqlashga almashtirish mumkin bo'ladi. Albatta bunda bolani ehtiyotkorlik bilan bajarishga o'rgatish lozim. "Munchoqlar bilan ishlash" - bolalar bu mashg'ulotda mayda buyumlarni manipulyatsiya qilishadi. Bunda bola turli o'lcham va shakldagi munchoqlari bor taqinchoqni o'ynashi natijasida uning qo'l barmoqlari motorikasi rivojlanadi. "Yormalarni bilan ishlash" - bunda biz kosachaga istalgan yormani solamiz va uni bolaga beramiz. U yormani qo'li bilan ushlab ko'radi yoki barmoqlari orasidan to'kadi. Ushbu o'yin orqali bolalarning mayda motorika va taktil hissiyotlari yaxshi rivojlanadi. "Qumda rasm chizish" (pesochnaya terapiya) maxsus texnika vositasida bolalar maxsus idishda qum sepiladi va bolaning barmoqchasini o'z qo'limizga olib, uni qum bo'ylab yuritimiz. Rasm chizishni dastlab chiziq, to'g'ri burchak, doira kabi oddiy shakllardan boshlab, ularni asta-sekinlik bilan murakkablashtirishimiz mumkin. "Qopqoqlarni burab yopish" - bunda bolalarga turli o'lchamdagi idishlar taklif etiladi, bankalar, butilkalarning qopqoqlarini burab ochib-yopish kabi oddiy mashg'ulot barmoqlarning epcilligini rivojlantiradi. Bolalarning mayda motorikasini rivojlantirishda samarali usullardan yana biri bu - tugmani taqish, yechish, iplarni bog'lashdir. Bu orqali nafaqat harakatlar rivojlantiriladi, balki bola mustaqil mehnatga ham o'rgatiladi. Turli yoshdagi bolalarga mos keluvchi mashg'ulotlardan biri bu - yumshoq narsalarga shakl berishdir. Ya'ni bunda bolalar plastilin, loy, xamirdan turli narsalarni yasashlari mumkin. Bu orqali bolaning mayda motorikasi bilan birgalikda uning bilish qobiliyalari, dunyoqarashi, fantaziyasi ham rivojlanadi. Bu kabi mashg'ulotlarga biz applikasiya, origami va sahnalashtirish faoliyatlarini ham kiritishimiz mumkin. Rasm chizish va bo'yash - punktir

chiziqlardan iborat rasmlarning konturlari uchidan chizib chiqish hamda turli shakldagi obyektlarni bo'yash juda foydali. Mozaika va pazllarni yig'ish orqali ham bolaning motorikasi hamda uning tasavvuri mashq qildiriladi. Mayda motorikani rivojlantirish uchun mo'ljallangan o'yinlar faqat kattalarning nazorati ostida olib borilishi hamda bunday mashqlarni muntazam ravishda olib boorish orqali samarali natijaga erishishimiz mumkin. Ya'ni, bolaning harakatlari ravon, aniq va o'zaro mutanosib bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, artikulyatsiya motorikasi va qo'l motorikasi o'zaro uzviy bog'liqdir. Qo'lning mayda harakatlari zaif eshituvchi bolaning nutq markazlarini rag'batlantiradi. Ushbu bog'liqlikni neyrofiziologik tahlilda quyidagicha tushunish mumkin: qo'l barmoqlari faoliyatiga mas'ul bo'lgan miya zonasi nutqni boshqaruvchi zonaga yaqin joylashgan. Shu sababli, barmoqlar harakatlari bilan shug'ullanish nutqni faollashtiradi. Zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlarda surdopedagoglarga quyidagicha tavsiyalar beriladi.

-Amaliy mashqlar: bir vaqtning o'zida til va barmoqlar mashqlarini bajarish.

-O'yin shaklidagi mashqlar: motorikani rivojlantirishning metodlari va usullari

-Artikulyatsiya mashqlar: til gimnastikasi, tilning yuqori tanglayga va tishlarga tegizilish, uni aylantirish.

-Nafas mashqlar: sharflarni puflash, qog'oz yoki sham yonishini harakatga keltirish.

-Qo'l motorikasi uchun: loydan shakllar yasash, parchalangan materiallardan shakl yig'ish.

Qo'l va barmoq massaji uchun tavsiyalar.

-Birgalikdagi mashqlar: musiqa ostida barmoqlar va artikulyatsion apparat mashqlari.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, zaif eshituvchi bolalarning artikulyatsiya va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish nafaqat nutq va psixologik jarayonlarga, balki bolaning kognitiv, umumiy aqliy va ijodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonlarning ta'lim-tarbiyadagi o'rnini quyidagilarda namoyon bo'ladi: Zaif eshituvchi bola diqqat markazini yaxshilash, maktabga tayyorlash jarayonida yozuv qobiliyatlarini shakllantirish hamda badiiy va ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam berish. Ushbu faoliyatni muntazam va tizimli ravishda tashkil etish orqali bolalarda o'quv faoliyati, nutq madaniyati va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish mumkin. Ta'lim muassasalarida bu jarayonlarni keng qo'llash tavsiya etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. -T.: Ukituvchi, 1993.
2. Xasanboeva O.U va boshk. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T.: Ilm ziyo, 2006.
3. Sh.A.Sodikova. Maktabgacha pedagogika. -T.: Tafakkur sarchashmalari, 2013.
4. Tarnovskaya, T.V. "Bolalarda motorikaning rivojlanishi: metodik tavsiyalar."
5. Solijonova Gullola Saidjon Qizi "Bo'lajak logopedlarni maxsus maktab bolalar bilan olib boriladigan pedagogik-psixologik tuzatish ishlarini usullari" International Multidisciplinary Conference 30th December, 2023 [Hosted from Glasgow | England www.confrencea.org](https://www.confrencea.org)